

## NEOLOGIZMLAR LUG'ATLARINING YARATILISHI XUSUSIDA

M. Nasirova <sup>1</sup>

### Annotatsiya:

Maqolada neologizmlar va ularning lug'aviy tarkibini shakllantirish jarayonlari tahlil qilinadi. Tilda yangi so'zlar paydo bo'lishi va ularning passiv holatdan aktiv holatga o'tish jarayoni izohlanadi. COVID-19 pandemiyasi davrida paydo bo'lgan koroneologizmlar turli tillarda, jumladan, ingliz, rus, fors va nemis tillaridagi lug'atlarda aks etgani misol tariqasida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, neologizmlar turli guruhlariga ajratilib, ularning semantik va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ingliz tilidagi bir qator neologizmlar, jumladan, farmatsevtika va tibbiyot sohalarida yaratilgan yangi atamalar keltirilgan. Ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi neologizmlarning lug'aviy izohlarini shakllantirish masalasi muhokama qilingan.

*Kalit so'zlar:* neologizmlar, lug'at, koroneologizmlar, ingliz tili, o'zbek tili, leksikografiya, COVID-19, farmatsevtika, semantika, yangi so'zlar.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/oosnfs23>

---

Til tarkibidagi yangi paydo bo'lgan so'zlar avval pasiv keyin esa aktiv lug'atlar tarkibiga kiritiladi. Keyinchalik katta lug'atlardagi so'zlar qatoridan joy oladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" va boshqa tillarga oid lug'atlar muntazam ravishda yangilanib boradi va bu yangilanishlarga sabab bo'ladigan asosiy narsa til tarkibiga kirib keladigan yangi so'zlardir. Yangi so'zlarning turli omillar sababli paydo bo'lishi va passiv holatdan aktiv holatga o'tish jarayoni to'xtovsiz davom etadi.

COVID-19 pandemiyasi davrida paydo bo'lgan neologizmlar ingliz va boshqa tillardagi koroneologizmlar lug'atida o'z aksini topgan. Ayni damda koroneologizmlarning inglizcha-ruscha, inglizcha-forscha, inglizcha-nemischa va h.k lug'atlari shakllantirilgan, ammo ingliz va o'zbek koroneologizmlari lug'ati hanuzgacha yaratilmagan. Eronlik tilshunos olimlar Mohsen Mahmoudi-Dehaki, Azizeh Chalak, Hossein Heidari Tabrizilar tomonidan hammualliflikda "The Journal of English Language Pedagogy and Practice" jurnalida nashr etilgan maqolada jami 216 ta koroneologizmlarning leksikografik talqini xususida fikr yuritilgan<sup>2</sup>. Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra yuqorida aytilga 216 ta yangi so'zlarning 195 tasi ingliz tiliga tegishli bo'lib 21 tasi fors tiliga tegishlidir. Foizda aytadigan bo'lsak inglizcha koroneologizmlar 90,3%ni forscha koroneologizmlar esa jami 9,7% ni tashkil qiladi.

---

<sup>1</sup> Nasirova Moxigul Furkatovna, SamDChTI, *Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrasini o'qituvchisi*

<sup>2</sup> M. Dehaki, A. Chalak, H. Heidari Tabrizi, The COVID-19 Lingo: Societies' Responses in form of Developing a Comprehensive Covidopedia of English vs. Persian Neologisms (Coroneologisms) / The Journal of English Language Pedagogy and Practice, Vol. 13, No.27, Fall & Winter 2020, pp. 26-52

Boshqa bir tadqiqotda (Xaddad-Haddad va Montero-Martinez, 2020) korpus lingvistikasi asosidagi tadqiqotda COVID-19 neologizmlari va ularning arab tiliga tarjimalari tahlil qilingan. Koroneologizmlar va baʼzi boshqa tibbiy neologizmlar Aljazeera kabi xalqaro onlayn yangiliklar veb-saytlarining maʼlum doirasidagi chastotasiga qarab oʻrganilgan. Tadqiqotchilarning xulosasiga koʻra, ingliz tilida soʻzlashuvchilar koʻplab tibbiy neologizmlarni boshqa tillardan oʻzlashtirish, soʻzlarni qoʻshish va aralashtirish yoʻli bilan ishlab chiqqan boʻlsalar, arab tilida soʻzlashuvchilar asosan oʻzlashmalardan foydalanadilar. Maʼlum boʻlishicha, arab tilining tabiatiga koʻra, yangi soʻz yasash murakkabligi sababli yangi maʼno va atamalar koʻpincha oʻzlashma soʻzlar yordamida ifodalanadi.

Koroneologizmlarning nutq qismlarini aniqlash natijasida ular toʻrtta asosiy nutq qismlariga tasniflangan. Koroneologizmlarning aksariyati otlar, eng kam qismi esa sifatlarni tashkil etadi. Ingliz tilidagi “COV” lemmasi bilan lugʻatlarga kiritilgan koroneologizmlarga quyidagilar misol boʻl oladilar:

*COV-syrup* (COV siropi) - Bu COVID-19 pandemiyasi davrida quruq yoʻtal ga qarshi ishlatilgan maxsus dori vositasining nomi. Bilamizki, pandemiya davrida paydo boʻlgan yangi soʻzlarning katta qismi bevosita farmasevtika sohasiga tegishli. Yangi dori vositalari ishlab chiqildi, dunyo mamlakatlari tomonidan turli vaksinalar yaratildi hamda pandemiyadan oldin mashhur boʻlmagan bir qator dori-darmon va dezinfeksiya vositalari keng ishlatiladigan boʻldi. Buning natijasida esa bir qator meditsina neologizmlari vujudga keldi<sup>1</sup>.

*COVI-latte* (Dalgona Coffee) - Koronavirus avj olgan paytda qahvaxonalarda uzoq navbatda turib kjeysin sotib olingan kofega aytiladi.

*COVID-38* - Koronavirusni ikki marta yuqtirgan odam maʼnosi bilan ishlatiladi. Albatta 38 raqamining bunga nima aloqasi bor, degan savol tugʻilishi tabiiy. Bu 19 raqamining 2 marotaba takrorlanishi. COVID-19 ga ikki marta chalinish, boshqacha qilib aytganda ikta COVID-19ning yigʻindisi.

*COVID-O* - Koronavirus test markazlariga tegishli atama. Avstraliyadagi shisha doʻkonlarida ishlatiladigan “Bottle-O” jargoniga oʻxshash soʻzdir.

*COVID Artist* - kasalxonalar yoki klinikalar tashqarisida turib, gitara yoki skripka chalib, “COVID-19 qahramonlari”, yaʼni virusga qarshi kurashuvchi tibbiyot xodimlarini xursand qilishga harakat qiladigan musiqachilarga shunday atalgan.

*COVID Bubble* - COVID-19 pandemiyasi davrida doʻstona uchrashuvlar uchun xavfsiz hududni bildiradi.

*COVID Marshals* - Bu jamiyatdagi odamlarga ijtimoiy masofa qoidalariga rioya qilishni nazorat qiladigan huquq tartibot organlari vakillariga nisbatan aytiladigan yangi soʻz.

*Covidal Sassoon* - Pandemiya paytida odamlarning oʻzlari tomonidan soch kesish jarayoniga ishora qilib aytiladigan soʻz.

*Covital Organs* - Bu neologism inson organlariga bogʻliq maʼnoni anglatadi. Koronavirusdan omon qolish uchun muhim boʻlgan qoʻllar va oʻpka kabi inson organlariga taalluqlidir.

<sup>1</sup> M. Dehaki, A. Chalak, H. Heidari Tabrizi, The COVID-19 Lingo: Societies' Responses in form of Developing a Comprehensive Covidipedia of English vs. Persian Neologisms (Coroneologisms) / The Journal of English Language Pedagogy and Practice, Vol. 13, No.27, Fall & Winter 2020, pp. 26-52

*Covidipedia* - Koronavirus pandemiyasi paytida turli tillarda pandemiya bilan bog'liq kerakli ma'lumotlarni taqdim etadigan eng mashhur onlayn ma'lumotlar bazalari nazarda tutiladi.

*Covidise* - sog'lom odamni virusni yuqtirgan odamga o'xshatish jarayonidagi kulgili holatini anglatadi.

*Covidpreneurs* - uzoq davom etgan COVID-19 pandemiyasi davrida ijodkorlik va innovatsiyalardan foydalangan holda o'z biznesida muvaffaqiyat qozongan shaxslarga nisbatan aytiladi. U birinchi marta "Irish times" kompaniyasini Koronavirus epidemiyasining murakkab davrida o'zlarining muvaffaqiyatli startaplarini boshlaganlarini ta'riflash uchun ishlatilgan.

*Covishop* – Bu so'z Amsterdamdagi yirik savdo markazlariga tegishli. U erda sanitariya darajasi pastligi sababli Koronavirus bilan kasallanish ehtimoli juda yuqori ekanligi uchun shunday deyilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1]. Жданова Елена Александровна. "Лексикографическая фиксация неологизмов в словарях разных типов" Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского, no. 3-1, 2012, pp. 388-392.

[2]. M. Dehaki, A. Chalak, H. Heidari Tabrizi, *The COVID-19 Lingo: Societies' Responses in form of Developing a Comprehensive Covidipedia of English vs. Persian Neologisms (Coroneologisms) / The Journal of English Language Pedagogy and Practice, Vol. 13, No.27, Fall & Winter 2020, pp. 26-52*

[3]. Денисенко Ю.Ф. Типы неологических словарей или РАН и формирование их системности // Русская академическая неография (к 40-летию научного направления): Матер. Междунар. конф. – СПб., 2006. С. 39–46.

[4]. Levchenko, Y. (2010). *Neologism in the lexical system of modern English*. Munchen, Germany: GRIN Verlag.

[5]. Mallinson, C., Childs, B., & Van Herk, G. (2013). *Data collection in sociolinguistics: Methods and applications*. California, US: Routledge. Mattiello, E. (2018). *Analogy in Word-formation*. Berlin, Germany: De Gruyter Mouton. Doi:10.1515/9783110551419.

[6]. Qurbonov Bobur. "Majolis un-nafois" va "Latoyifnoma" tazkiralariidagi matnlarning qiyosiy tahlili" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 1, 2022, pp. 616-625*.

[7]. Семерджили В.Н. Коронеологизмы и способы их образования / Актуальные аспекты лингвистики, лингводидактики и межкультурной коммуникации, Краснодар, 2021.

[8]. Chorshanbiyevich, Q. B. (2024). *On the translation of Persian complements*. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(6), 266-269.

[9]. Qizi, E. A. Z., & Qizi, X. Y. I. (2023). *The background of the emergence of pragmalinguistics*. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(06), 58-62.